

YANGI O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BOR BOLALARNI IJTMOIY HIMOYA QILISHDA MAHALLANING RO'LI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20830013>

Sayfiddinova Kamola Sirojiddin qizi

Farg'ona davlat universiteti

Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – nogironligi bor bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy muhitga moslashuvi va inklyuzivligini ta'minlashda mahalla institutining o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy bosqichda mahallaning individual yondashuv, manzilli ijtimoiy ko'mak, davlat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish funksiyalari hamda ushbu sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmuasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar

Yangi O'zbekiston, mahalla instituti, nogironligi bor bolalar, ijtimoiy integratsiya, inklyuziya, ijtimoiy siyosat, manzilli yordam, tarixiy an'analar, infratuzilma, ijtimoiy himoya, "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili", davlat dasturlari.

Аннотация:

В данной статье научно-теоретически и практические проанализированы роль и значение института махалли как одного из приоритетных направлений социальной политики Нового Узбекистана в поддержке детей с инвалидностью, их адаптации к социальной среде и обеспечении инклюзивности. В статье также рассматриваются современные функции махалли, включая индивидуальный подход, адресную социальную помощь, взаимодействие с государственными и международными организациями, а также нормативно-правовая база данной сферы.

Ключевые слова:

Новый Узбекистан, институт махалли, дети с инвалидностью, социальная интеграция, инклюзия, социальная политика, адресная помощь, исторические традиции, инфраструктура, социальная защита, «Год развития махалли и процветания общества», государственные программы.

KIRISH QISMI

Nogironligi bor bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy muhitga moslashuvi va jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlash Yangi O'zbekiston ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda mahalla tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mahalla faqat mahalliy boshqaruv bo'g'ini emas, balki aholining real ehtiyojlarini bevosita biladigan, oilalar bilan yaqin aloqada ishlaydigan va ijtimoiy yordamni manzilli tashkil etishga xizmat qiladigan ijtimoiy institutdir. Shu jihatdan mahalla nogironligi bor bolalar va ularning oilalarini aniqlash, qo'llab-quvvatlash hamda jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.³⁸

Mahalla O'zbekistonda ma'muriy-hududiy birlik sifatida faoliyat yuritib, aholining ijtimoiylashuvi, o'zaro hamjihatligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Buyuk tarixchi Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida islom dini O'rta Osiyoga kirib kelishidan avval ham Movarounnahr hududidagi shahar va qishloqlar mahallalardan tashkil topgani qayd etilgan. Qadimdan mahallalarni shu hududda yashovchi oqsoqollar boshqargan bo'lib, ular aholining turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari va jamoaviy hayotini tartibga solishda muhim rol bajargan.³⁹

ASOSIY QISM

O'zbekiston hududida dastlabki mahalla tizimining shakllanishi miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikka borib taqaladi. Jarqo'ton va Sopollitepa yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shaharsozlik madaniyati tarkibida jamoaviy yashash shakllari mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Mahallalar dastlab ark tashqarisidagi shahriston hududida hunarmandchilik maskanlari, kosiblar turar joylari va turli kasb egalari jamoalari shaklida rivojlangan. Shu nuqtai nazardan, mahalla o'zbek jamiyatida qadimdan ijtimoiy birdamlik, o'zaro yordam va jamoaviy mas'uliyatni ifodalovchi tuzilma sifatida shakllangan. L.Levitning "O'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning eng oliy shakli mahalladir" degan fikri ham mahalla institutining ijtimoiy hayotdagi o'rnini aniq ifodalaydi.⁴⁰

Yangi O'zbekiston sharoitida mahalla tizimi nogironligi bor bolalar bilan ishlashda bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Avvalo, mahalla nogironligi bor

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

³⁹ Narshaxiy Abu Bakr. Buxoro tarixi. — Toshkent: Fan, 1966.

⁴⁰ Levit L. O'zbekiston mahallasi: tarixiy va ijtimoiy asoslar // Ijtimoiy fikr. — Toshkent, 2004. — №2. — B. 45–49.

bolalar va ularning oilalari haqida zarur ma'lumotlarni to'plash, ularning ehtiyojlarini aniqlash hamda tegishli tashkilotlarga yetkazishda muhim axborot manbai hisoblanadi. Har bir mahalla o'z hududidagi bolalarning sog'lig'i, ta'lim olish holati, rehabilitatsiya ehtiyoji va oilaviy sharoitini kuzatib borishi orqali ijtimoiy yordamni aniq va manzilli tashkil etishga ko'maklashadi. Ushbu ma'lumotlar keyinchalik rehabilitatsiya dasturlari, ijtimoiy xizmatlar va moddiy yordam mexanizmlarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.⁴¹

Mahalla tizimi orqali nogironligi bor bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarning markazlashtirilgan tizimga yetkazilishi davlat tomonidan ajratiladigan resurslarning adolatli va ehtiyojga mos taqsimlanishini ta'minlaydi. Bunday yondashuv nogiron bolalar uchun zarur xizmatlar, yordam dasturlari, ta'lim va rehabilitatsiya yo'nalishlarini belgilashda davlat organlari uchun amaliy ahamiyatga ega. Shu bois mahalla nogironligi bor bolalar bilan ishlashda nafaqat kuzatuvchi, balki ijtimoiy xizmatlar tizimini harakatga keltiruvchi boshlang'ich bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi.⁴²

Mahallaning yana bir muhim vazifasi nogironligi bor bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy yordam hamda insonparvarlik ko'magini tashkil etishdir. Nogiron bolalarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda mahalla asosiy ishtirokchilardan biri hisoblanadi. Xususan, oziq-ovqat, dori-darmon, maxsus texnika vositalari bilan ta'minlash, homiylik yordamini yo'naltirish, bayram va madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali bolalarni jamiyat hayotiga jalb qilish mahalla faoliyatining muhim yo'nalishlaridandir. Shuningdek, xayriya tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda maxsus dasturlarni amalga oshirish nogiron bolalarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanish darajasini oshiradi.⁴³

Yangi O'zbekiston sharoitida mahalla davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'inga aylanmoqda. Bu tizim nogironligi bor bolalarni faqat ijtimoiy himoya qilish bilan cheklanmay, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarining qondirilishi, ta'lim va rehabilitatsiya xizmatlaridan foydalanishiga ko'maklashuvchi muhim institut sifatida rivojlanmoqda. Shu jihatdan mahalla nogironligi bor bolalarning jamiyatga moslashuvi, oilalarning qo'llab-quvvatlanishi va ijtimoiy inklyuziya jarayonining samaradorligini ta'minlovchi asosiy ijtimoiy mexanizmlardan biri hisoblanadi.

⁴¹ O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi O'RQ-350-son "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni.

⁴² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Mahalla tizimi. Individual yondashuv: Har bir bola va uning oilasi uchun maxsus dasturlar ishlab chiqiladi. Bu dasturlar nogiron bolalarning ehtiyojlariga mos bo'lgan individual yondashuvni ta'minlaydi.

Mahalliy hamjamiyatni jalb qilish: Mahalla nogiron bolalarning muammolarini hal qilish uchun mahalliy aholini, xayriya tashkilotlarini va biznes sub'ektlarini jalb qiladi.

Oilalarni qo'llab-quvvatlash: Nogiron bolalarning oilalari psixologik va ijtimoiy yordam xizmatlari bilan ta'minlanadi. Bu oila a'zolarining ruhiy farovonligini oshirishga yordam beradi.

Mahallaning davlat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi. Yangi O'zbekistonda mahalla tizimi davlat va xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qiladi. Bu jarayonda asosiy vazifalar:

A. Davlat dasturlari doirasida nogiron bolalarga taqdim etiladigan yordamni tashkil qilish;

B. Xalqaro grantlar va loyihalar orqali mahalla infratuzilmasini yaxshilash;

C. Infratuzilma moslashuvini ta'minlash, jumladan, bolalar uchun qulay transport va o'yin maydonchalarini tashkil qilish;

D. Xalqaro tajribadan foydalanish.

Hozirgi davrga kelib mahalla faoliyatini yanada takomillashtirib, yoshlar tarbiyasidagi, aholining zaif qatlamlarini jamiyatga moslashuvini ta'minlashdagi ishtirokini oshirish davlat siyosati darajasiga chiqdi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi Taraqqiyot O'zbekiston strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 21-dekabrda "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-402-son qarori, 2013-yil 22 - apreldagi O'RQ-350-sonli "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlar, Vazirlar mahkamasining 2024-yil 25-yanvardagi 46-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni

reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari alohida o'rin tutadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025 yil 26 dekabr kuni Oliy Majlisga va ko'p millatli xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida 2026 yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi mamlakat taraqqiyotida mahalla institutiga berilgan strategik ahamiyatning yaqqol ifodasidir. Mazkur yil doirasida mahallani faqatgina hududiy boshqaruv bo'g'ini sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va iqtisodiy tayanch instituti sifatida rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Aholining dard-u tashvishini joyida hal etish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va fuqarolik faolligini oshirishda mahallaning mas'uliyati yanada kengayishi ta'kidlandi.

2026-yildan boshlab mamlakat bo'ylab 9 mingdan ortiq mahallada infratuzilmani tubdan yaxshilash rejalashtirilgan bo'lib, yo'llar, ichimlik suvi, elektr ta'minoti, jamoat transporti, ta'lim va sog'liqni saqlash ob'ektlari hamda yashil hududlar bir butun tizim sifatida yangilanadi. Bu ishlar parchalangan holda emas, balki kompleks yondashuv asosida amalga oshirilib, mahallalardagi asosiy muammolarni bir vaqtning o'zida hal etishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, har bir viloyatda 2-3 tadan tuman tanlab olinib, ulardagi barcha mahallalar to'liq qayta quriladi, tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish infratuzilmasi rivojlantiriladi hamda ushbu maqsadlar uchun 8,5 trln so'm mablag' yo'naltiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 2026 yilga shunday nom berilishi mahallaning davlat va jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi ko'priq sifatidagi rolini mustahkamlab, fuqarolarning faol ishtirokiga tayanadigan adolatli, ochiq va taraqqiy etgan jamiyatni barpo etishga qaratilgan strategik qaror ekanini anglatadi.⁴⁴

Quyidagilar mahallani rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ustuvor islohotlarning asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

- (a) mahallalarda 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalarini ishga tushirish orqali qo'shimcha 100 mingta yangi ish o'rnini yaratish;
- (b) kambag'allik va ishsizlikdan xoli mahallalar sonini 3,5 mingtaga yetkazish;
- (v) mahallalar infratuzilmasini takomillashtirishga 20 trillion so'm mablag' yo'naltirib, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirish;

⁴⁴ <https://sudacademy.uz/>

(g) mahallalardagi muammolarni bir vaqtning o'zida tezkor hal etishda barcha davlat organlariga mas'uliyatni yuklab, ijroni 24/7 rejimda onlayn nazorat qilish amaliyotini yo'lga qo'yish.⁴⁵

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda nogiron bolalarni ijtimoiy himoya qilishda mahallaning ro'li tobora ortib bormoqda. Mahalla tizimi nogiron bolalar va ularning oilalari uchun ijtimoiy xizmatlarning asosiy ko'rinishlarini taqdim etuvchi muhim vosita hisoblanadi. Ushbu tizimning davlat va jamoatchilik institutlari bilan yaqin hamkorlikda ishlashi, nogiron bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
2. Narshaxiy Abu Bakr. Buxoro tarixi. — Toshkent: Fan, 1966.
3. Levit L. O'zbekiston mahallasi: tarixiy va ijtimoiy asoslar // Ijtimoiy fikr. — Toshkent, 2004. — №2. — B. 45-49.
4. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi O'RQ-350-son "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
7. <https://sudacademy.uz/>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-22-son "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-22-son "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida